

O'ZBEKISTONDA BANK SEKTORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH VA MOLIYAVIY INKLYUZIYANI RIVOJLANTIRISH

Nazarov Mirafzal Sharofiddin o'gli

O'zbekiston Respublikasi Bank - Moliya akademiyasi magistri.

mirafzal_nazarov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22261330>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi, uning moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi o'rni kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda Jahon bankining Global Findex ma'lumotlar bazasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari hamda mamlakatda fintech va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishiga oid so'nggi ma'lumotlardan foydalanilgan.

Raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga jadal integratsiyalashuvi natijasida bank hisobvaraqlariga egalik qilish, raqamli to'lovlardan foydalanish, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking va fintech asosidagi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Xususan, O'zbekistonda fintech ekotizimining rivojlanishi, raqamli bank xizmatlari foydalanuvchilari sonining ortishi va Milliy tezkor to'lov tizimining kengayishi moliyaviy xizmatlarning aholiga yanada tezkor, qulay va nisbatan arzon shaklda yetkazib berilishiga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Raqamli bank xizmatlari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, aholining chekka hududlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mikro va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirishini yaxshilash hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi, aholining raqamli va moliyaviy savodxonligi darajasidagi tafovutlar, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda ayrim me'yoriy-huquqiy cheklollar moliyaviy inklyuziyaning to'liq ta'minlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida aniqlangan. Maqolada O'zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirish, fintech va tijorat banklari hamkorligini rivojlantirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, bank sektori, moliyaviy inklyuziya, fintech, raqamli bank xizmatlari, mobil banking, raqamli to'lovlar, masofaviy bank xizmatlari, raqamli kreditlash, iqtisodiy o'sish, Global Findex, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy savodxonlik, kiberxavfsizlik, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

DIGITAL TRANSFORMATION OF THE BANKING SECTOR AND DEVELOPMENT OF FINANCIAL INCLUSION IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the digital transformation of the banking sector in Uzbekistan and its role in expanding financial inclusion and promoting economic growth. The study utilizes data from the World Bank's Global Findex Database, statistical information from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, as well as recent data

on the development of fintech and digital banking services in the country. As digital technologies become increasingly integrated into banking activities, access to bank accounts, digital payments, remote banking services, mobile banking, and fintech-based financial services has expanded significantly. In particular, the development of the fintech ecosystem in Uzbekistan, the growing number of users of digital banking services, and the expansion of the National Interbank Fast Payment System are contributing to the delivery of financial services to the population in a faster, more convenient, and relatively affordable manner. The findings indicate that digital transformation is an important factor in promoting financial inclusion. Digital banking services can contribute positively to economic growth by reducing transaction costs, expanding access to financial services for populations in remote areas, improving access to financial resources for micro and small businesses, and increasing the transparency of economic activities. At the same time, uneven development of digital infrastructure across regions, disparities in digital and financial literacy, cybersecurity risks, personal data protection issues, and certain regulatory and legal constraints have been identified as major factors hindering the full realization of financial inclusion. The article develops scientific and practical recommendations aimed at further accelerating the digital transformation of Uzbekistan's banking sector, strengthening cooperation between fintech companies and commercial banks, improving digital infrastructure, and enhancing the population's digital financial literacy.

Keywords: digital transformation, banking sector, financial inclusion, fintech, digital banking services, mobile banking, digital payments, remote banking services, digital lending, economic growth, Global Findex, digital economy, financial literacy, cybersecurity, Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

KIRISH.

Bugungi kunda moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sektorining an'anaviy faoliyat yuritish modelini tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, mobil ilovalar, raqamli to'lov tizimlari, masofaviy identifikatsiya va fintech platformalarining keng joriy etilishi bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini tezkor, qulay va nisbatan kam xarajatli shaklga olib kelmoqda. Shu sababli bank sektorining raqamli transformatsiyasi nafaqat moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish, balki aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ya'ni moliyaviy inklyuziyani ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Jahon bankining Global Findex tadqiqotlari moliyaviy inklyuziyaning asosiy ko'rsatkichlari sifatida moliyaviy hisobvaraqlarga egalik qilish, raqamli to'lovlardan foydalanish, jamg'arish, kredit olish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholaydi.

Global miqyosda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ushbu xizmatlardan foydalanish ko'lamining sezilarli darajada kengayishiga olib kelgan. Xususan, mobil telefonlar va internetdan foydalanishning kengayishi an'anaviy bank infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda.

O'zbekiston uchun ham mazkur jarayon alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda bank xizmatlarini raqamlashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi natijasida aholining bank filiallariga bevosita murojaat qilmasdan hisobvaraqlarni boshqarishi, to'lovlarni amalga oshirishi, kredit va mikroqarz olish uchun ariza topshirishi, omonatlarni masofadan boshqarishi hamda valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishi imkoniyati kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil davomida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish sezilarli darajada oshgan. 2025-yilda jismoniy shaxslarning mobil banking ilovalari orqali amalga oshirgan onlayn operatsiyalari hajmi 1,6 barobarga oshib, 645,6 trln so'mni tashkil etgan. Shu davrda bank kartalari soni 68,2 million donaga yetgan, onlayn mikroqarzlarning hajmi esa 38,6 trln so'mni tashkil qilgan¹. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda bank xizmatlarining raqamli kanallarga tez sur'atlarda o'tayotganini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiyaning moliyaviy inklyuziyaga ta'siri, avvalo, moliyaviy xizmatlarning geografik va iqtisodiy jihatdan ommalashuvi orqali namoyon bo'ladi. An'anaviy bank xizmatlarida filiallar, bankomatlar va boshqa jismoniy infratuzilmalarga ehtiyoj yuqori bo'lsa, raqamli banking ushbu xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada chekka hududlarda yashovchi aholi, kichik biznes subyektlari, yoshlar va moliyaviy xizmatlardan ilgari yetarli darajada foydalanmagan qatlamlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Biroq raqamlashtirish jarayoni bilan bir qatorda yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda.

Jumladan, aholining raqamli va moliyaviy savodxonligi darajasidagi tafovutlar, internet infratuzilmasining hududlar bo'yicha bir xil rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli firibgarlik hamda ayrim ijtimoiy guruhlarining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi moliyaviy inklyuziyaning to'liq ta'minlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi va uning moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, ularning aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga ta'sirini baholash hamda raqamli transformatsiyani yanada jadallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati raqamli transformatsiya va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni O'zbekiston bank sektori misolida kompleks tahlil qilish bilan belgilanadi.

Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari banklarning raqamli xizmatlarini takomillashtirish, fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

¹ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/b0d/4h8ufsm1pbs5e7dl336ygil61lalyws1/Annual-report-2025.pdf>

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank sektorining raqamli transformatsiyasi va moliyaviy inklyuziya masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. Mazkur tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar nafaqat banklarning operatsion samaradorligini oshiruvchi vosita, balki aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Jahon bankining Global Findex Database tadqiqotlari moliyaviy inklyuziya jarayonlarini xalqaro miqyosda baholash uchun muhim empirik manba hisoblanadi. Global Findex ma'lumotlari hisobvaraqqa egalik qilish, raqamli to'lovlardan foydalanish, jamg'arma va kredit xizmatlaridan foydalanish kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqotlar raqamli to'lovlarning kengayishi moliyaviy tizimga aholining ko'proq qismini jalb qilish imkoniyatini oshirayotganini ko'rsatadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rgangan tadqiqotlarda ham texnologiyalarning moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli alohida qayd etiladi. Sahay va hammualliflar raqamli moliyaviy xizmatlar moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirishi, xizmatlarning xarajatlarini kamaytirishi va aholining moliyaviy tizimga integratsiyasini kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi². Shu bilan birga, mualliflar raqamli moliyaviy xizmatlarning ijobiy samarasi uchun raqamli infratuzilma, iste'molchilarni himoya qilish va tegishli tartibga solish mexanizmlarining mavjudligi muhimligini qayd etadi.

Arner, Barberis va Buckley raqamli moliyaviy texnologiyalar rivojlanishini FinTech inqilobi doirasida tahlil qilib, yangi texnologiyalar banklar va moliyaviy institutlarning biznes modellarini o'zgartirayotganini ko'rsatadi. Ularning fikricha, fintech kompaniyalari an'anaviy bank xizmatlariga muqobil bo'lish bilan birga, banklarning yangi mijozlar guruhlariga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi³. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida fintech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni moliyaviy inklyuziyaning muhim omili sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bank sektori bo'yicha olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda ham raqamlashtirish va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor kuchaymoqda. Eshtemirova tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston tajribasi asosida bank sektorining raqamli transformatsiyasi moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sishga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda Global Findex ma'lumotlari hamda O'zbekistonning fintech va raqamli banking bo'yicha statistik ko'rsatkichlaridan foydalanilgan⁴.

Shuningdek, Open Banking yo'nalishidagi yangi tadqiqotlarda API texnologiyalari, fintech kompaniyalari bilan integratsiya va Bank-as-a-Service (BaaS) modellarining O'zbekiston bank sektoridagi istiqbollari ko'rib chiqilmoqda.

² Sahay, R., Eriksson von Allmen, U., Lahreche, A., Khera, P., Ogawa, S., Bazarbash, M., Beaton, K. The Promise of Fintech: Financial Inclusion in the Post COVID-19 Era. IMF Departmental Paper, 2020.

³ Arner, D. W., Barberis, J., Buckley, R. P. The Evolution of FinTech: A New Post-Crisis Paradigm? Georgetown Journal of International Law, 2016, Vol. 47, No. 4, pp. 1271–1319.

⁴ Eshtemirova, M. A. Digital Transformation of the Banking Sector and Financial Inclusion in Uzbekistan. Agrobusiness, Science and Technology, 2026, Vol. 4, No. 7.

Bunday yondashuv bank xizmatlarini yanada ochiq, moslashuvchan va mijozga yo'naltirilgan shaklga o'tkazish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkonini berishi mumkin⁵. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro miqyosda yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida mazkur jarayonni fintech, mobil banking, raqamli to'lovlar, masofaviy bank xizmatlari, raqamli kreditlash va kiberxavfsizlikni yagona tizim doirasida baholash bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli emas. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi. Mazkur maqolaning asosiy tadqiqot bo'shlig'i (research gap) shundan iboratki, O'zbekiston bank sektoridagi raqamli transformatsiya ko'pincha alohida texnologiyalar yoki bank xizmatlari kesimida o'rganilgan, biroq uning moliyaviy inklyuziyaga kompleks ta'siri, xususan, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati, xizmatlar narxi, hududiy qamrov, raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik omillari bilan birgalikda yetarlicha tizimli baholanmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot raqamli transformatsiyaning moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini O'zbekiston bank sektori misolida kompleks yondashuv asosida o'rganishni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi va uning moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini baholash uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini raqamli transformatsiya, moliyaviy inklyuziya va fintech rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. Empirik tahlil uchun Jahon bankining Global Findex ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari va yillik hisobotlari hamda bank sektorining raqamli xizmatlariga oid rasmiy ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tadqiqotda, birinchi navbatda, tizimli tahlil usuli qo'llanilib, bank sektorining raqamli transformatsiyasi alohida texnologiyalar yig'indisi sifatida emas, balki banklarning biznes modeli, xizmat ko'rsatish kanallari, to'lov infratuzilmasi va mijozlar bilan munosabatlarining kompleks o'zgarishi sifatida ko'rib chiqildi. Mazkur yondashuv fintech, mobil banking, internet banking, raqamli to'lovlar, raqamli kreditlash va masofaviy identifikatsiya kabi elementlarning yagona tizim sifatida shakllanishini baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekistondagi raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari turli davrlar kesimida taqqoslandi. Bunda bank kartalari soni, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, mobil banking orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi, raqamli kreditlash va to'lov infratuzilmasi asosiy ko'rsatkichlar sifatida tanlandi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli orqali 2021–2025-yillardagi mavjud ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi. Xususan, raqamli to'lovlar, bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari va onlayn mikroqarzlar hajmining o'zgarishi tahlil qilindi. Global Findex ma'lumotlari esa O'zbekiston aholisining moliyaviy xizmatlardan foydalanish holatini xalqaro metodologiya asosida baholash imkonini berdi (World Bank, 2022).

⁵ Kuvatova, O. S., Ergashov, A. Open Banking as a Driver of Financial Innovation and Inclusion in Uzbekistan's Banking Sector. Green Economy and Development, 2026.


Tadqiqotda, shuningdek, kontent-tahlil usulidan foydalanilib, O‘zbekiston bank sektorining raqamlashtirilishiga oid Markaziy bankning yillik hisobotlari, statistik materiallari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Mazkur yondashuv raqamli transformatsiyaning nafaqat miqdoriy, balki institutsional jihatlarini ham aniqlash imkonini berdi. Bunda moliyaviy inklyuziya faqat bank hisobvarag‘iga ega bo‘lish bilan cheklanmaydi. U aholining to‘lovlar, jamg‘armalar, kredit, sug‘urta va boshqa moliyaviy xizmatlardan qulay, ishonchli va maqbul xarajatlar asosida foydalanish imkoniyatini ham qamrab oladi.

TADDIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

O‘zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi so‘nggi yillarda moliyaviy tizim rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon dastlab plastik kartalar va elektron to‘lovlarning kengayishi bilan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik mobil banking, internet banking, masofaviy identifikatsiya, raqamli kreditlash, QR va NFC to‘lovlari hamda fintech platformalarining rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Raqamli transformatsiyaning muhim xususiyati shundaki, bank xizmatlarini ko‘rsatishning markazi asta-sekin bank filialidan raqamli platformaga ko‘chmoqda. Mijoz hisobvaraqlar ochish, to‘lovlarni amalga oshirish, kredit uchun ariza topshirish, omonatni boshqarish, valyuta ayirboshlash va boshqa operatsiyalarni mobil ilova orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, jismoniy shaxslarning mobil banking ilovalari orqali amalga oshirgan onlayn operatsiyalari hajmi bir yil davomida 1,6 barobarga oshib, 645,6 trln so‘mga yetgan. Mazkur hajm tarkibida onlayn omonat operatsiyalari 99,3 trln so‘m, onlayn valyuta ayirboshlash operatsiyalari 55,8 trln

soʻm, onlayn mikroqarzarlar 38,6 trln soʻm va kreditlarni qaytarish operatsiyalari 46,7 trln soʻmni tashkil etgan (Central Bank of Uzbekistan, 2026a).

Bu koʻrsatkichlar raqamli bank xizmatlari endilikda faqat toʻlovlarni amalga oshirish vositasi boʻlib qolmay, balki jamgʻarish, kreditlash va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning mustaqil kanaliga aylanayotganini koʻrsatadi.

1-jadval

Oʻzbekistonda mobil banking orqali onlayn operatsiyalar hajmi


Koʻrsatkich	Hajmi
Mobil banking orqali jami onlayn operatsiyalar	645,6 trln soʻm
Onlayn omonat operatsiyalari	99,3 trln soʻm
Onlayn valyuta ayirboshlash	55,8 trln soʻm
Onlayn mikroqarzarlar	38,6 trln soʻm
Kreditlarni onlayn qaytarish	46,7 trln soʻm

Manba: Central Bank of Uzbekistan (2026a) (<https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/>)

Ushbu maʼlumotlarni grafik koʻrinishda ifodalash raqamli banking xizmatlarining ichki tarkibini aniq koʻrsatadi. Ayniqsa, mobil banking orqali amalga oshirilgan jami operatsiyalar hajmining 645,6 trln soʻmga yetgani raqamli kanallarning bank tizimidagi iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim koʻrsatkichi — bank kartalari infratuzilmasining kengayishidir. 2025-yil yakunida Oʻzbekistonda muomaladagi bank kartalari soni 68,2 mln donaga yetgan boʻlib, yil davomida 10 foizga oshgan. Shu bilan birga, 430 mingga toʻlov terminali orqali amalga oshirilgan toʻlovlar hajmi 460,3 trln soʻmga yetib, bir yil ichida 1,4 barobar oʻsgan (Central Bank of Uzbekistan, 2026a).

Keltirilgan grafiklar Oʻzbekistonda raqamli toʻlov infratuzilmasi va elektron hisob-kitoblar



hajmi 2024–2025-yillarda sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Xususan, banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 7 279 trln so'mdan 11 375 trln so'mga oshib, qariyb 56,3 % ga ko'paygan. Hisob-kitob kliring tizimida esa tranzaksiyalar hajmi 100 trln so'mdan 126 trln so'mga, tranzaksiyalar soni esa 123 mln donadan 144 mln donaga yetgan. Tezkor to'lovlar tizimida ham sezilarli o'sish kuzatilgan: tranzaksiyalar hajmi 918 trln so'mdan 1 390 trln so'mga, tranzaksiyalar soni esa 47,6 mln donadan 61,3 mln donaga oshgan. Bu mos ravishda qariyb 51,4 % va 28,8 % o'sishni anglatadi.

Umuman olganda, grafik ma'lumotlari O'zbekistonda raqamli to'lovlar, banklararo elektron hisob-kitoblar va tezkor to'lov tizimlarining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya aholining va tadbirkorlik subyektlarining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, bank sektorining raqamli transformatsiyasi hamda moliyaviy inklyuziyaning rivojlanishi uchun muhim zamin yaratmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda bank sektorining raqamli transformatsiyasi jadal rivojlanib, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar yaratganini ko'rsatdi.

Mobil banking, raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash va fintech xizmatlarining kengayishi aholining bank xizmatlaridan foydalanishini soddalashtirmoqda. Biroq tadqiqot davomida ushbu jarayonda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

Asosiy muammolardan biri — raqamli infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi va aholining raqamli-moliyaviy savodxonligi darajasidagi tafovutdir. Bu ayrim aholi qatlamlarining raqamli bank xizmatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun, avvalo, chekka hududlarda internet va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, aholining raqamli-moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amaliy dasturlarni kengaytirish taklif etiladi.

Ikkinchi muammo — kiberxavfsizlik va raqamli firibgarlik risklarining ortib borishidir.

Raqamli to'lovlar va masofaviy bank xizmatlari kengayishi bilan mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini himoya qilish masalasi yanada dolzarb bo'lmoqda. Shu sababli banklarda ko'p bosqichli autentifikatsiya, biometrik identifikatsiya, real vaqt rejimida firibgarlikni aniqlash va mijozlarni muntazam ogohlantirish tizimlarini kuchaytirish taklif etiladi.

Uchinchi muammo — banklar va fintech kompaniyalari o'rtasidagi integratsiya va interoperabellikning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Turli platformalar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi va texnik standartlarning farqlanishi yangi raqamli xizmatlarni joriy etishni murakkablashtirishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun yagona API va ma'lumot almashinuvi standartlarini rivojlantirish, bank-fintech hamkorligini kuchaytirish hamda Open Banking va Open Finance mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi muammo — ayrim aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz va samarali foydalanish ko'nikmalarining yetarli emasligidir. Shu bois aholiga raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va firibgarlikdan saqlanish bo'yicha amaliy ta'lim dasturlarini joriy etish taklif qilinadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasi moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Biroq uning samaradorligi faqat raqamli xizmatlar hajmining oshishi bilan emas, balki raqamli infratuzilma, moliyaviy savodxonlik, kiberxavfsizlik va interoperabellikning birgalikda rivojlanishi bilan belgilanadi. Shu sababli kelgusida raqamli bank xizmatlarini barcha aholi qatlamlari uchun qulay, xavfsiz, arzon va teng imkoniyatli qilish O‘zbekiston bank sektorining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Central Bank of Uzbekistan (2026a) Annual Report 2025. Available at: <https://cbu.uz/upload/medialibrary/b0d/4h8ufsm1pbs5e7dl336ygil61lalyws1/Annual-report-2025.pdf> (Accessed: 20 August 2026).
2. Eshtemirova, M. A. (2026) 'Digital Transformation of the Banking Sector and Financial Inclusion in Uzbekistan', *Agrobusiness, Science and Technology*, 4(7).
3. Kuvatova, O. S. and Ergashov, A. (2026) 'Open Banking as a Driver of Financial Innovation and Inclusion in Uzbekistan's Banking Sector', *Green Economy and Development*.
4. Sahay, R., Eriksson von Allmen, U., Lahreche, A., Khera, P., Ogawa, S., Bazarbash, M. and Beaton, K. (2020) *The Promise of Fintech: Financial Inclusion in the Post COVID-19 Era**. IMF Departmental Paper.
5. Arner, D. W., Barberis, J. and Buckley, R. P. (2016) 'The Evolution of FinTech: A New Post-Crisis Paradigm?', *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), pp. 1271–1319.
6. World Bank (2022) *Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, D.C.: World Bank Group.
7. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D. and Ansar, S. (2022) *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, D.C.: World Bank Group.
8. Gomber, P., Koch, J. A. and Siering, M. (2017) 'Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions', *Journal of Business Economics*, 87(5), pp. 537–580.
9. Manyika, J., Lund, S., Singer, M., White, O. and Berry, C. (2016) *Digital Finance for All: Powering Inclusive Growth in Emerging Economies*. McKinsey Global Institute.
10. PwC (2020) *Global FinTech Report 2020: Redefining the Future of Finance**. Available at: <https://www.pwc.com> (Accessed: 20 August 2026).
11. Zavolokina, L., Dolata, M. and Schwabe, G. (2016) 'The FinTech Phenomenon: Antecedents of Financial Innovation Perceived by the Popular Press', *Financial Innovation*, 2(1), pp. 1–16.
12. BCG (Boston Consulting Group) (2021) *Digital Banking in Emerging Markets: Opportunities and Challenges*. Available at: <https://www.bcg.com> (Accessed: 20 August 2026).

13. IMF (International Monetary Fund) (2021) Fintech and Financial Inclusion in the Post-COVID-19 Worl. IMF Policy Paper. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

14. Ozili, P. K. (2018) 'Impact of Digital Finance on Financial Inclusion and Stability', Borsa Istanbul Review, 18(4), pp. 329–340.

15. Tadjibaev, S. and Rakhimova, G. (2025) 'Development of Digital Banking Services and Financial Literacy in Uzbekistan', Journal of Central Asian Economies, 8(2), pp. 45–62.